# 8. Takrorlash

Yondosh mavzu:
Foydali va zararli hasharotlar

Teskari masalalar, mantiqiy masalalar.






**1.** Har bir hasharot aylananing qaysi qismiga kelib tushadi?




**2.** 51, 28, 14 sonlarining har biri uchun namunada keltirilgani kabi misollar yozing.

*Namuna:*
40 + 6 = 46
6 + 40 = 46
46 – 6 = 40
46 – 40 = 6

**3.** Ipakchilik fabrikasiga birinchi kuni 8 yashik, ikkinchi kuni 12 yashik, uchinchi kuni birinchi va ikkinchi kunlaridan 5 yashik ko‘p pilla keltirilgan. Fabrikaga uch kunda necha yashik pilla keltirilgan?

**4.** Hisoblang.

| | | |
|---|---|---|
| 45 + 21 | 86 – 12 | 37 + 20 |
| 27 + 31 | 83 – 42 | 79 – 30 |

CHOP ETISH UCHUN EMAS

**5.** Chizmadan foydalanib teskari masalalar tuzing va ularni yeching.




**6.** Uzunligi 1 dm bo‘lgan *AB* kesma chizing. Unda *C* va *D* nuqtalarni belgilang. Ushbu nuqtalar *AB* kesmani necha bo‘lakka bo‘ladi? Kesma bo‘laklari bo‘yicha ifoda tuzing.

**7.** Taqqoslang.

| | | |
|---|---|---|
| $a \square a-3$ | $b+14 \square b+25$ | $8-k \square 10-k$ |
| $b \square b+7$ | $d-11 \square d-12$ | $m+0 \square m-0$ |

**8.** Asalari bayramga 49 ta hasharotni taklif etdi. Ulardan 12 tasi kapalak, 14 tasi asalari, qolganlari esa qo‘ng‘izlar. Asalari bayramga qancha qo‘ng‘izni taklif etdi?

**9.** Jadvalni daftaringizga ko‘chirib chizing va to‘ldiring.

| $a$ | 4 | 6 | 10 | 12 | 24 | 41 | 50 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $a + 10$ | | | | | | | |
| $a - 1$ | | | | | | | |
| $a + a$ | | | | | | | |

CHOP ETISH UCHUN EMAS